

**Davlat soliq qo‘mitasi Raisi o‘rinbosari A.Fayzibayevning
2022 yil I yarim yillik davomidagi faoliyati ko‘rsatkichlari
yuzasidan qisqartirilgan**

M A ‘ L U M O T

Hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar natijasida budgetga **3020,6 mlrd.so‘m** mablag‘larning tushumi ta‘minlandi.

Dasturiy mahsulotlarni amaliyotga tatbiq etish natijasida soliq hisobotlarida **2931,0 mlrd.so‘mlik** tafovutlari mavjud bo‘lgan **9,6 mingta** tadbirkorlik sub‘ektlarida soliq tekshiruvidan oldingi tahlillar va kameral soliq tekshiruvlari tashkil qilindi.

O‘tkazilgan **sayyor soliq** tekshiruvlari natijasida budgetga **70,9 mlrd.so‘m** moliyaviy jarimalar undirildi.

Belgilangan 480,0 mlrd.so‘m qo‘shimcha manba mablag‘larini budgetga jalb etish maqsadida norezidentlar tomonidan bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha valyuta operatsiyalari tahlil qilindi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida belgilangan reja-topshiriq ijrosi **502,7 mlrd.so‘mga** yoki **104,7 %ga** bajarildi.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan va faoliyatida soliq xavfi yuqori darajada bo‘lgan **233 ta** soliq to‘lovchilarda soliq auditlarini o‘tkazilib, budgetga **974,3 mlrd.so‘m** soliqlar qo‘shimcha hisoblandi va **254,1 mlrd.so‘m** miqdorida moliyaviy jarimalar qo‘llanildi.